

## MILLIY SULOLAVIY KUTUBXONALAR

*Rajabova Noila Murodjon qizi*

*Termiz Davlat Universiteti*

*Kutubxona axborot faoliyati yo'nalishi talabasi*

*To'ymurodova Dinora Otabek qizi*

*Termiz Davlat Universiteti*

*Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil*

*etish hamda boshqarish yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda hukmronlik qilgan sulolalar va hukmdorlarning insoniyat tarixida jamiyatni o'z qo'li ostida boshqarib, hayotning yana boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatib o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarning kutubxonaga qo'shgan hissasi haqida atroflicha so'z yuritish chuqur ilmiy mushohada va salohiyatni, keng va teran tafakkur egasi bo'lishni, shu bilan birga xolislikni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** Somoniylar davrida kutubxonalar, Xorazmshohlar davrida kutubxonalar, Temuriylar davrida kutubxonalar, Shayboniylar davrida kutubxonalar, Ashtarxoniylar davrida kutubxonalar, Buxoro amirligi davrida kutubxonalar, Xiva xonligi davrida kutubxona, Qo'qon xonligi davrida kutubxonalar.

Biz bilamizki, axborot yig'iladigan joy kutubxona deb ataladi. O'zbekiston hududida dastlabki kutubxonalar miloddan avvalgi 1-ming yillikning so'nggi asrlarida paydo bo'lgan. Bu kutubxonalar hukmdorlar saroyida va ibodatxonalarda tashkil etila boshlangan. Arab xalifaligi IX-X asrlarda tarqoqlashgandan so'ng, XI asr oxirlarida Somoniylar davlata yuzaga keldi. Somoniylar davrida ilm-fan, madaniyat rivojlangan. Somoniylar davlatining poytaxti bo'lgan Buxoroda juda

ko'p kutubxonalar bo'lgan. Bu davrda juda ko'p qomusiy olimlar yashab ijod etgan. X asrdagi mashhur kutubxonalaridan biri bu- Buxoro kutubxonasidir. U o'sha davrda juda boy fondga ega bo'lgan. Buxorodagi ushbu kutubxona O'rta Osiyoning siyosiy va madaniyat markazi hisoblangan. Ushbu kutubxona amir saroyida joylashgan bo'lib, kitoblar fan sohalari bo'yicha sandiqlarda saqlangan. Buxoroda bu kutubxonaga kitobxon faqat amir Nuh ibn Mansurning ruxsati bilangina kirgan. Bu kutubxona ichida sandiqlarda bor kitoblarning ro'yxati mavjud bo'lgan. Qator terilgan sandiqlarda turli sohalarga oid kitoblar saqlangan. Tibbiyotga doir kitoblar ichida qadimgi yunon tabiblaridan Gippokrat asarlari, tabib Discuridus (Pedaniy Dioskorid), tabib Jolinus (Klavdiy Galen) asarlari saqlanib kelingan. Xorazmda ham yirik sulolaviy kutubxonalar mavjud bo'lgan. Urganchda xorazmshohlar, mamuniylar va anushtageniylar zamonida kutubxonalar barpo etilgan. Xorazm shohi Ma'mun II saroyda juda ko'p olimlarni birlashtirgan "Ma'mun akademiya"sini barpo qiladi. Bir qator xorazmlik olimlar qatori "Ma'mun akademiya"da Beruniy ham ishlay boshlaydi va bu yerda Abu Ali ibn Sino bilan uchrashadi. XI-XII asrlarda Xorazmda juda ko'p ilmiy kishilar bo'lgan va ularning ishlashi uchun sharoit yaxshi bo'lgan. Bir yarim asr davomida mo'g'ul istilochilari tomonidan O'rta Osiyo xalqining fan va madaniyati vayron qilingan. Keyinchalik tiklanish davrida mahalliy hukmdorlar orasida sulolaviy kutubxonalar tashkil topgan va kitob xazinasini to'plash, uni boyitish an'anaga aylangan. Kutubxonachilik ishi rivojlanishiga Amir Temur va Temuriylar hokimiyati davrida kata e'tibor berilgan. Amir Temur kitoblarga tengsiz boylik sifatida qaragan. Hatto, buyuk Sohibqiron davrida Samarqand shahridan kitob olib chiqib ketish man etilgan. Dastavval, Sohibqiron Amir Temur vatani Shahrisabzda, so'ng mamlakat poytaxti Samarqandda saroy kutubxonasini tashkillashtiradi. Temur saroy kutubxonasi uchun butun Movarounnahr bo'ylab kitobfurushlardan va shaxsiy kutubxona egalariidan mashhur mualliflarning bejirim bezatilgan kitob nusxalarini sotib olgan. Amir Temur kutubxonasidan faqat saroy vakillarigina

emas, balki muayyan guruhdagi kitobxonlar ham foydalanganlar. Amir Temurdan so'ng uning noyob kutubxonasi nabirasi Mirzo Ulug'bekka meros bo'lib qolgan. Mirzo Ulug'bek juda bilimli inson bo'lgan. Uning davrida O'rta Osiyo kutubxonachilik ishi yanada rivojlandi. Ayniqsa, 1428-1429 yillarda Ulug'bek topshirig'i bilan Samarqanddagi observatoriya qoshida kutubxona barpo etadi va u eng boy kitob fondiga ega bo'lgan. Aytishlaricha, Ulug'bek yiqqan kitoblar xazinasini Pergam qo'lyozmalaridan iborat bo'lgan. Ulug'bek davrida kutubxona tinimsiz boyib brogan. Bu kutubxonada Platon, Gippokrat, Ptolomey, Aristotel asarlari to'plangan va yaxshi saqlanib kelingan. Ulug'bek barpo qilgan kutubxonalarda vatandoshlarimiz buyuk olim Muhammad ibn Muso Xorazmiyning algebraga doir risolasi, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Astronomiya kaliti" nomli asarlari, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" risolasi bo'lgan. Ulug'bek yulduzlar ilmiga juda qiziqish bildirgan. Yulduzlar ilmi tarixini shu qadar o'rganib chiqdiki, natijada o'zi ham shu sohada ilmiy ishlar qilib, kitoblar yoza boshladi. Ko'p yillik mehnatidan so'ng "Ziji jadidi Ko'ragoniy", "Ulug'bek ziji" kabi kitoblar dunyoga keldi. Ulug'bek vafotidan keyin kutubxona qismati shogirdi Ali Qushchi bilan bo'lgan. Temuriylardan Shohrux Mirzo, Boysunqur Mirzo va Husayn Boyqaro tashkil etgan kutubxona ham adabiy-badiiy, ilmiy kitoblarning xilma-xilligi va soni jihatidan Amir Temurning Samarqanddagi saroy kutubxonasidan qolishmas edi. Shohrux Mirzoning o'g'li Mirzo Boysunqur juda zehni, aqilli, dono bola bo'lgan. Boysunqur Mirzo birodari Ulug'bek singari ilmi va fazilatlari bilan tanilgan. U Hirotda ulkan kutubxona barpo etadi. Boysunqur Mirzo kutubxonasida 40 nafar yetuk hunarmandlar bo'lgan. Ular xushnavis xattot Mavlono Ja'far Tabriziy raisligida kitobat bilan mashg'ul bo'lib, kitobat ishiga lozim bo'lgan varroqlik, sahhoflik, tasvir, tazhib, tajlid, vassolik va boshqa nafosat, badiiy san'at ijodi bilan mashg'ul bo'lganlar. Boysunqur Mirzo kutubxonasida faqat kitob ko'chirish bilan shug'ullanibgina qolmay, nodir qo'lyozmalarning ilmiy tanqidiy matnini tiklab,

tasvirli albomlar ham tuzganlar. Shuning uchun, bu kutubxonani yirik nafis san'at akademiyasi desa ham bo'ladi. XVI-XVIII asrlarda Buxoroda ikkita yirik saroy kutubxonalaridan biri Shayboniylar saroy kutubxonasi mavjud bo'lgan. Shayboniyxonning o'zi juda ilmi shaxs bo'lgan, shuning uchun saroyi oldida yirik va mashhur kutubxona barpo qiladi. Bu kutubxonada nodir asarlar bilan birga o'zi yozgan she'r va asarlari, zamondoshlarining qo'lyozma asarlari ham saqlanib qolgan. Ashtarxoniylar davriga kelib madaniyat yanada rivojlandi, adabiy yodgorliklar yuzaga keldi, xalq orasidan yetishib chiqqan shoirlar ijodi gulladi. Ashtarxoniylar kutubxonasida turli davrlarda 7 kishi ish olib borgan. Bular Mirza Mumin Munshiy, Muhammad Amin kitobdor, Nasriddin-Din kitobdor, Mir Sayid Jalol kitobdor, Qozi Lutfilloh, Hoji Abd-ar-Raxmon kitobdor va Hoji Mir Muhammad Yoqub kitobdorlar bo'lgan. Ma'lum bo'lishicha, Buxoro xonligida qadimgi qo'lyozma kitoblarni yig'ishda va saqlashda Subhonqulixonlarning xizmati katta bo'lgan. Subhonqulixon hukmronligi davrida Buxoroda mashhur "Buxoro shifoxonasi" qurilgan va hu yerda katta kutubxona ham tashkil etilgan. Asosan, kutubxona fondida ilmiy va tabobatga doir adabiyotlar saqlangan. XVIII asrga kelib Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida qo'lyozma kitoblar juda ko'paygan. Aynan shu davrda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida saroy kutubxonalari va boshqa kutubxonalarning qo'lyozma fondlari saqlanib qolgan. Xiva xonligida fan va madaniyat XVIII-XIX asrlarda rivojlanib kitob yig'ish va kutubxonalarga e'tibor kata edi. Saroy kutubxonasi fondi Muhammad Rahimxon II davrida kengayib boyigan. Muhammad Rahimxon II "Feruz" taxallusi bilan ijod qilgan. U she'rlar yozib, saroyda juda ko'p qobiliyatli shoirlarni to'plagan. O'zi adabiyotga qiziqqanligi sababli ham kutubxonaga kitob yig'ish ishlari bilan shug'ullangan. Xiva xonidan yana biri Muhammad Rahim Tozabog'e o'z davrida kutubxona barpo qilgan. U kutubxonaning bir qismini Arkda va yana bir qismini yozgi qarorgohda saqlagan. Tozabog'e kutubxonasi juda boy bo'lib, har doim yangi tomdagi adabiyotlar va nusxalar bilan to'ldirib borgan. Kutubxona tarixiy

asarlar, monografiyalarga juda ko'p bo'lgan. Qo'qon xoni kutubxonasidan asosan saroy xodimlari va xizmatchilar foydalangan. Misol uchun, davlat arbobi va tarixchi Mirza Aziz qo'lyozma kitoblardan tez-tez foydalanib turgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.I.Kormilisin, M.M.Rasulov, S.X.Davlatov. Kutubxonashunoslik ishining nazariyasi va tarixi (2003);
2. <https://shosh.uz>;
3. [xorazmiy.uz](http://xorazmiy.uz)